

**Siqilgan tabiiy gaz yetkazib berish bo'yicha
23-sonli shartnoma**

31 yanvar 2022 yil

Farg'ona tumani

Bir tomondan “**SNG GAZ SERVIS**” MCHJ, kelgusida “**YETKAZIB BERUVCHI**” deb nomlanuvchi o'z Nizomiga asosan ish yurituvchi rahbar SH.Pazilov va ikkinchi tomondan o'z Nizomiga asosan ish yurituvchi A.Yusupov Farg'ona tuman hokimligi moliya bo'limi rahbari kelgusida “**ISTE'MOLCHI**” deb nomlanuvchi ushbu shartnomani tuzdilar:

1.SHARTNOMA MAQSADI

1.1. “**YETKAZIB BERUVCHI**” o'zida mavjud mahsulotni yetkazib berish, **ISTE'MOLCHI** esa yetkazib berilgan mahsulot uchun o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi:

| Mahsulot nomi | O'lchov birligi | Yil davomida umumiyligining miqdori | Jumladan choraklar bo'yicha soni | | | |
|---------------------|-----------------|-------------------------------------|----------------------------------|---|---|---|
| | | | 1 | 2 | 3 | 4 |
| Siqilgan tabiiy gaz | Kub.m | 2997000 | 2997000 | 0 | 0 | 0 |

1.2. “**ISTE'MOLCHI**” ning avtomobilini siqilgan gaz bilan to'ldirish “**YETKAZIB BERUVCHI**” ning avtommobilarga gaz to'ldiruvchi kompressor sanksiyasi (AGTKSH) orqali amalga oshiriladi.

1.3. Yetkazib berilgan kun deb “**ISTE'MOLCHI**” ning avtomobilini siqilgan gaz bilan to'ldirilgan kun xisoblanadi.

2.TO'LOV SHARTLARI

2.1. 444 kub.m. Siqilgan tabiiy gaz uchun to'lov -3596400 (Uch million besh to'qson olti ming tort yuz) so'm qilib belgilandi. Shartnoma tuzish vaqtida shartnomaning umumiyligining qiymati 1198800 so'm Bir million bir yuz to'qson sakkiz ming sakkiz yuz so'm. Ushbu summa xomashyo, yoqilg'i-energetik resurslarni narxini o'zgarishi, hamda me'yoriy dalolatnoma va O'zbekiston Respublikasi hukumatining Qarorlarini o'zgarishi barobarida o'zgarishi mumkin.

2.2. Siqilgan tabiiy gaz uchun to'lov, Qonunda ko'rsatilgan shaklda, bank qoidalariga rioya qilgan holda, yetkazib berilayotgan kunni deklaratsiyalangan narxlarini qayd qilish reestriga asosan amalga oshiriladi.

2.3. Siqilgan gaz uchun to'lov, qonunda ko'rsatilgan shaklda, bank qoidalariga rioya qilgan holda, yetkazib berilayotgan kunni deklaratsiyalangan narxlarini qayd qilish reestriga asosan amalga oshiriladi.

2.4. Siqilgan gaz to'ldirish 100 % oldindan to'lov “**YETKAZIB BERUVCHI**” ning hisob raqamiga o'tkazilgandan keyin amalga oshiriladi.

3.TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

3.1. “ISTE'MOLCHI” GBM (gaz balon moslama) avtomashinani ishlayotgan (ekspluatatsiya) vaqtida texnik holatiga, texnika havfsizligiga to'liq javobgardir.

3.2. “ISTE'MOLCHI” majburiyatlari: “**ISTE'MOLCHI**” ning gaz to'ldirish uchun **AGTKSH** ga kelgan transport vositasida quyidagi me'yoriy bo'lishi shart:

A) Gaz baloni texnik sinovdan o'tganligi haqida **DALOLATNOMA**;

B) Haydovchi gaz balonli avtomobilni boshqarishga o'qiganligi haqida guvohnoma;

V) Avtomashina texnik pasportida DAN organlari tomonidan gaz moslamasi o'rnatilganligi to'g'risidagi belgi;

G) Avtomashina texnik pasportida texnik ko'rikdan o'tganligi haqida belgi;

3.3. “YETKAZIB BERUVCHI” va “**ISTE'MOLCHI**” siqilgan gazni, gaz sig'imini o'rtacha kunlik me'yori darajasida bir maromda olish va berish majburiyatini oladi. “**ISTE'MOLCHI**” siqilgan gazni olishi bo'yicha barcha o'zgarishlar to'g'risida “**YETKAZIB BERUVCHI**” ni chorak boshlanmasidan 15 kun muddat oldin yozma ravishda xabar qiladi. “**YETKAZIB BERUVCHI**” ishlab chiqarish jarayonida AGTKSH ni joriy ta'mir uchun to'xtatgan vaqtida “**ISTE'MOLCHI**” ni 3 kun oldin, kapital ta'mir uchun to'xtatishdan oldin ish boshlanmasdan 15 kun oldin ogohlantiradi.

3.4. “YETKAZIB BERUVCHI” quyidagi huquqlarga ega:

A) Avtomashinani gaz baloni uskunasini ishslash sozligini, o'lchov-nazorat asboblari va yopqich armaturasini tegshirish.

B) “**ISTE'MOLCHI**” gaz to'ldirish shaxobchasi reglamenti qoidalariga bo'ysunmagan va shartnoma shartlarini buzgan taqdirda siqilgan gaz to'ldirishni to'xtatish.

4.GAZNI HISOBGA OLİSH VA TO'LOV TARTIBI.

4.1. “ISTE'MOLCHI” ga beriladigan siqilgan tabiiy gaz miqdori “**YETKAZIB BERUVCHI**” ning o'lchov asboblari, (AGTKSH) orqali “**ISTE'MOLCHI**” ga beriladigan gaz miqdori jadvali bilan kelishilgan holda “O'zbekneftgaz” MXK tomonidan 28.11.1995 yil tasdiqlangan (AGTKSH) dan berilayotgan gaz miqdorini o'lchash, hisob-kitob qilish RD Uz 51-034-94 uslubiga asosan hamda Davlatstandart qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan (13.01.1996 yildagi nr. № 418) va 12.04.1996 yil “**ISTE'MOLCHI**” lar bilan (AGTKSH) orqali berilgan gaz uchun hisob-kitob qilish qo'llanmasiga asosan aniqlanadi.

5.TOMONLARNI MULKIY JAVOBGARLIGI

5.1. Siqilgan tabiiy gazni me'yorida ortiq olinganda qo'shimcha shartnoma tuziladi.

5.2. “YETKAZIB BERUVCHI” va “**ISTE'MOLCHI**” quyidagi hollarda beriladigan gaz miqdorini kamaytirish mumkin va buning uchun javobgar bo'lmaydi.

A) AGTKSH ga tabiiy gazni yetkazib beruvchilar texnologik jarayonida yuzaga keladigan avariya holatida, magistral gaz quvurlarida, shaxar gaz, elektr tarmoqlraida oldindan hisobga olib bo'lmaydigan majburiyatlar paydo bo'lganda

B) Yong'in, yer qimirlash va tabiiy ofatlar bo'lganda

V) Magistral gaz quvurlarida navbatdagi ta'mirlash ishlari olib borilganda, shaxar gaz, elektr tarmoqlarida sinov ishlari olib borilganda hamda svarka ishlari olib borilganda

5.3. Tomonlar ushbu shartnoma shartlariga rioya qilmaganda yoki to'liq bajarmasligi oqibatida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlari va iqtisodiy sudi asosida hal qilinadi.

6. SHARTNOMA AMAL QILISH MUDDATI.

6.1. Ushbu shartnoma tomonlar tarafidan imzolangan kundan boshlab 2022 yil 31 dekabr kuniga qadar amal qiladi.

6.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir nusxasi "**YETKAZIB BERUVCHI**" da ikkinchi nusxasi "**ISTE'MOLCHI**" da saqlanadi. Ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan masalalar yuzasidan tomonlar hozirda amaldagi Qonunlar asosida ish olib boradi.

- A) "**ISTE'MOLCHI**" lar DAN tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan avtomashinalarni gaz sarfi, miqdori va markasi ko'rsatilgan hisob kitobini
- B) "**ISTE'MOLCHI**" lar balansidagi avtomobillar rusumi va davlat belgisi ko'rsatilgan ro'yxatini taqdim etadi.

7. TOMONLARNING XUQUQIY MANZILLARI

"**YETKAZIB BERUVCHI**"

SNG GAZ SERVIS MCHJ

Farg'ona tuman, Vodil sh., Tinchlik mfy
x/r: 20208000000781985001
AIKB "Ipak yo'li bank" ning
Farg'ona bo'limi
MFO:01168,XXTUT:11232
STIR: 304899215

Raxbar SH.T. Pazilov



"**ISTE'MOLCHI**"

Farg'ona tuman hokimligi moliya bo'limi

Vodil qishlog'i Marg'ilon k-si 13 uy
x/r: 23402000300100001010
Moliya Vazirligi G'aznachiligi
Inn: 201122919
Toshkent shaxar Markaziy banki
MFO: 00014
SHXR:1000228660302337011312092004
INN 200196788

Raxbar A.Yusupov



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA
№ YQ5741528877**

- 1.** Loyihaning turi: shartnoma
- 2.** Loyhaning nomi: siqilgan tabiiy gazni yetkazib berish to'g'risida
- 3.** Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
Farg'ona tuman moliya bo'limi tomonidan 2022-yil 21-yanvar kuni dasturga
kiritilgan

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertrizadan o'tkazish natijalariga
ko'ra

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul
qilish maqsadga muvofiq.

Farg'ona tumani yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti:



M.Rasulov